Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
Xaitova E'zoxon Baxrom qizi	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li	
Maktabgacha yoshidagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rni	737
Toshpulatova Nargiza Abduraimovna	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
Jurayeva Umida Yuldashevna	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.....	748
Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
Toshpo'latova O'g'li Abdurahmon qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
Pardaeva Matonat Salimovna	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
Чернова Татьяна Алексеевна	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
Xolikov Akmal Tajidinovich	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
Туракулова Дурдона Боходировна	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadirbayevich	



BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Pardaeva Matonat Salimovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Amaliy mashg'ulotlarning turlari, mazmuni va ularni didaktik tamoyillar asosida loyihalash yo'llari yoritilgan. Shuningdek, muammoli o'qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va zamonaviy metodik yondashuvlar orqali kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida metodik, texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: amaliy mashg'ulot, kasbiy kompetentlik, biologiya ta'limi, metodik ko'nikma, raqamli texnologiyalar, didaktik tamoyillar, muammoli o'qitish.

Abstract: This article analyzes the didactic potential of practical lessons in developing the professional competence of future biology teachers. It discusses the types and structure of practical sessions and the ways to design them based on didactic principles. The study substantiates mechanisms for enhancing professional preparation through problem-based learning, digital technologies, and modern methodological approaches. As a result, practical recommendations are proposed for fostering methodological, technological, and communicative competencies.

Key words: practical training, professional competence, biology education, methodological skills, digital technologies, didactic principles, problem-based learning.

Аннотация: В данной статье проанализированы дидактические возможности практических занятий в процессе формирования профессиональной компетентности будущих учителей биологии. Раскрываются виды и содержание практических занятий, а также пути их проектирования на основе дидактических принципов. Обоснованы механизмы совершенствования профессиональной подготовки с использованием проблемного обучения, цифровых технологий и современных методических подходов. В результате исследования разработаны рекомендации по развитию методических, технологических и коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: практическое занятие, профессиональная компетентность, биологическое образование, методические навыки, цифровые технологии, дидактические принципы, проблемное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki biologiya fani nafaqat nazariy bilimlarni, balki eksperimental faoliyat, kuzatish, tahlil va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlarini chuqur o'rganish va ularni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish zarurati mavjud. Biologiya fani o'zining tabiati bilan kuzatish va tajriba asosida shakllanadigan fanlar sirasiga kiradi. Shuning uchun bu fan bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida amaliy mashg'ulotlar asosiy o'quv faoliyati shakli sifatida maydonga chiqadi. Amaliy mashg'ulotlar biologik jarayon va hodisalarni bevosita kuzatish, modellar ustida ishlash, laboratoriya tajribalarini o'tkazish, dala sharoitidagi kuzatishlar orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchiga fan mohiyatini chuqurroq anglash, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni yechish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotimizda biologiya fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni va didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish maqsad qilib olindi. Shu asosda quyidagi vazifalar belgilandi:

- biologiya fani xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarning didaktik asoslarini aniqlash;
- biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini yoritish;
- amaliy mashg'ulotlar orqali bu kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini ochib berish;
- mavjud tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bunda amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni faqat texnologik yoki metodik jihatdan emas, balki didaktik asosda yondashuv orqali tahlil qilindi. Shuningdek, biologiya fanining o'ziga xosligi va talabalarning eksperimental tafakkurini rivojlantirishdagi roli ham alohida e'tiborga olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda ta'limda sifatni ta'minlashda o'qituvchining kasbiy kompetentligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompetentlik tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarning majmuini, balki ularni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatini ham ifodalaydi. Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, metodik vositalardan to'g'ri foydalanish va muammoni mustaqil hal etish kabi sifatlarini o'z ichiga oladi ^[1]. Tadqiqotchilar kasbiy kompetentligini bir necha tarkibiy qismlarga ajratgan:

- axborot-kommunikativ kompetensiya – fan bo'yicha yangiliklarni o'zlashtirish va ularni uzatish qobiliyati;
- tashkiliy-pedagogik kompetensiya – darsni samarali rejalashtirish, boshqarish, tahlil qilish qobiliyati;
- tadqiqot kompetensiyasi – ilmiy izlanishlar olib borish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmasi;
- metodik kompetensiya – fan o'qitishning samarali usullarini qo'llay olish mahorati ^[2].

Bizningcha, kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining o'z kasbiga doir bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va ularni amaliyotda muvofiqlashtira olish qobiliyatidan iborat ko'p qirrali sifatdir.

Biologiya o'qituvchisi nafaqat fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki talabalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantira olishi kerak. Shu bois biologiya o'qituvchisiga quyidagi kompetensiyalar zarur:

- fanlararo integratsion kompetensiya – biologiyani kimyo, geografiya, ekologiya kabi fanlar bilan bog'lab o'rgatish ^[3];
- laboratoriya ishlarini tashkil etish kompetensiyasi – biologik tajribalarni to'g'ri rejalashtirish, o'tkazish va xulosalash ko'nikmalari;
- ekologik kompetensiya – o'quvchilarni atrof-muhitni asrashga o'rgatish, ekologik madaniyatni shakllantirish;
- innovatsion-didaktik kompetensiya – interaktiv metodlar, AKT vositalari va STEAM elementlarini qo'llay olish.

Bu kompetensiyalar biologiya fanining o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda o'qituvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishga xizmat qiladi. Metodik tayyorgarlik – bu bo'lajak o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga tayyorligi bo'lib, u kasbiy kompetentlikning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, biologiya fanida bu tayyorgarlik laboratoriya ishlarini o'rgatish, ekskursiyalarni tashkil etish, ekologik loyihalarni tuzish, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi ^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodik tayyorgarlik quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi: biologiya darslarini rejalashtirish va modellash-tirish; fan mazmunini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish; baholash mezonlarini to'g'ri tanlash va qo'llash; darsda muammoli va amaliy yondashuvni joriy etish. Bo'lajak o'qituvchilar uchun mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar esa metodik tayyorgarlikni real pedagogik vaziyatlar asosida chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa kasbiy kompetentlikning rivojlanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi ^[5]. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va ularning didaktik imkoniyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlar – bu o'quvchilarning yoki talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, real vaziyatlarda qo'llash va kasbiy faoliyatga yaqin sharoitlarda ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan o'quv faoliyati



shaklidir. Ayniqsa, tabiiy fanlar – xususan, biologiya ta'limida amaliy mashg'ulotlar asosiy o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Chunki biologik bilimlar bevosita kuzatish, tajriba, modellash va tahlil kabi faoliyatlar orqali samarali o'zlashtiriladi.

Biologiya fanida amaliy mashg'ulotlarning quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

- laboratoriya ishlari – mikroskopik kuzatishlar, tajribalar o'tkazish, preparatlar tayyorlash orqali biologik obyektlarning tuzilishi va funksiyalarini o'rganish;
- dala darslari – tabiiy sharoitda o'simlik va hayvonot olami bilan tanishish, ekologik kuzatishlar olib borish;
- ekskursiyalar – biologik muzeylar, botanika bog'lari, suv havzalari, fabrikalar yoki fermer xo'jaliklariga tashrif buyurib, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash.

Har bir tur o'ziga xos didaktik maqsad va metodik yondashuvlarga ega. Laboratoriya ishlari analitik fikrlash va texnik ko'nikmalarni rivojlantirsa, dala darslari va ekskursiyalar atrof-muhitga nisbatan ongli munosabat, ekologik tafakkur va kuzatuvchanlikni shakllantiradi.

Amaliy mashg'ulotlar samarali bo'lishi uchun ularni didaktik tamoyillar asosida loyihalash zarur. Quyida asosiy tamoyillar va ularning amaliy mashg'ulotlardagi namoyon bo'lishi bayon etiladi:

- Ilmiylik tamoyili – mashg'ulot mazmuni fan asoslariga tayangan, ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Masalan, biologik tajribalarda aniqlik va ilmiy metodologiya muhim ahamiyatga ega.
- O'zlashtirishga yo'naltirilganlik – talabalar mustaqil fikr yuritishga undaladi, faqat tayyor bilim emas, balki izlanishlar orqali xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi.
- Faollik va mustaqillik – talabalar mashg'ulot davomida faol ishtirok etishlari, o'zlari natijaga erishishlari lozim. Bu esa kasbiy o'sish uchun asos bo'ladi.
- Ko'rgazmalilik – vizual materiallar, modellar, real obyektlardan foydalanish orqali bilimlar ongli va mustahkam o'zlashtiriladi.
- Hayotga yaqinlik va amaliyotga yo'naltirish – mashg'ulotlar real pedagogik yoki biologik faoliyatga yaqin holatlarda tashkil etiladi. Bu kasbiy kompetentlikning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni loyihalashda o'quv maqsadlari aniq belgilanadi, topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi, baholash mezonlari oldindan aniqlanadi. Shu orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki o'z faoliyatini tahlil qilish, tuzatish kiritish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy mashg'ulotlar bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayon orqali quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- metodik kompetensiya – dars jarayonida laboratoriya ishlarini tashkil etish, xavfsizlik texnikasiga rioya qilish, tajriba natijalarini pedagogik tilda tushuntira olish;
- tadqiqotchilik kompetensiyasi – biologik muammolarni aniqlash, gipoteza ilgari surish, eksperiment o'tkazish va natijalarni tahlil qilish;
- texnologik kompetensiya – mikroskoplar, o'lchov uskunlari, raqamli qurilmalardan foydalanish ko'nikmasi;
- kommunikativ va reflektiv kompetensiyalar – guruhda ishlash, natijalarni himoya qilish, fikr almashish va o'z faoliyatini baholay olish.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchilik faoliyatining muhim jihati bo'lgan sabr-toqat, aniqlik, mas'uliyat, kuzatuvchanlik kabi shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Bu esa kasbiy kompetentlikni faqat bilim doirasida emas, balki shaxsiy rivojlanish bilan uyg'un tarzda ta'minlaydi. Bizningcha, amaliy mashg'ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ularni to'g'ri tashkil etish esa bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar asosida metodik ko'nikmalarni shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Chunki metodik ko'nikma – bu o'qituvchining o'quv jarayonini rejalashtirish, darsni to'g'ri tashkil qilish, talabalarning faoliyatini boshqarish va baholashda zarur bo'lgan amaliy qobiliyatlar majmuasidir. Amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar:

- laboratoriya ishlarini tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini o'rganadilar;



- biologik tajriba natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlanadilar, ya'ni metodik yondashuvlarni real vaziyatda sinab ko'radilar.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlarda metodik topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilsa, bu bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash, rejalashtirish va tahlil qilish salohiyatini oshiradi ^[6]. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar dars jarayonini modellashtirish, dars konspekti tayyorlash, nazorat savollarini tuzish kabi metodik ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlar samaradorligi, avvalo, talabalarning faol ishtirok darajasiga bog'liq. Agar talaba faqat tayyor ko'rsatmalarni bajarsa, unda faqat texnik ko'nikmalar shakllanadi. Ammo agar u topshiriqni tahlil qilish, rejalashtirish va yechim topishda faol ishtirok etsa, bu uning kasbiy kompetentligini chuqurlashtiradi. Shu bois, biologiya fanida amaliy mashg'ulotlarni muammo yechishga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda talabalarga quyidagi turdagi topshiriqlar berilishi mumkin:

- "Biologik jarayonni modellashtirish" – masalan, hujayra bo'linishini maket yoki diagramma orqali tushuntirish;
- "Eksperiment loyihasini tuzing" – tajriba uchun maqsad, usul, asboblari va kutilayotgan natijalarni yozib chiqish;
- "Muammoni tahlil qiling" – masalan, ekologik muammo bo'yicha biologik yechimlar ishlab chiqish.

Bunday topshiriqlar biologik tafakkurni, mantiqiy fikrlashni, ijodkorlikni rivojlantirish bilan birga, o'qituvchilik faoliyatining eng muhim elementi – qaror qabul qilish ko'nikmasini ham shakllantiradi ^[7].

Zamonaviy biologiya ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali amaliy mashg'ulotlarning imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Raqamli vositalar nafaqat vizual materiallar, balki tajriba va modellashtirish jarayonini interaktiv tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Masalan:

- virtual laboratoriyalar – talabalar tajriba xavfsizligi yoki texnik imkoniyat bo'lmaganda ham tajriba simulyatsiyalarini o'tkazishi mumkin;
- interaktiv test va baholash platformalari – amaliy mashg'ulot natijalarini avtomatik baholash imkonini beradi;
- mikroskop kameralari va raqamli sensorlar – real obyektlarni o'rganishda ko'rgazmalilikni oshiradi;
- 3D-modellashtirish dasturlari – biologik tuzilmalarni vizual ko'rinishda tahlil qilish imkonini beradi ^[8].

1-jadval: Amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish yo'nalishlari

Yo'nalish	Asosiy faoliyat / vosita	Rivojlanadigan kompetensiyalar / natijalar
1. Metodik ko'nikmalarni shakllantirish	- laboratoriya ishlarini tashkil etish - dars modellashtirish - o'quv materiallari tayyorlash	- metodik kompetensiya - darsni rejalashtirish va tahlil qilish - nazorat topshiriqlari tuzish ko'nikmasi
2. Faol ishtirok va muammo asosida topshiriqlar	- biologik muammolarni tahlil qilish - eksperiment loyihasini ishlab chiqish - jamoaviy muhokamalar	- tanqidiy va ijodiy fikrlash - qaror qabul qilish - kommunikativ va reflektiv kompetensiyalar
3. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy vositalar	- virtual laboratoriyalar - mikroskop kameralari - 3D modellashtirish - onlayn baholash tizimlari	- texnologik kompetensiya - vizual tahlil qilish - innovatsion yondashuvlarni qo'llash
4. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish	- real sharoitga yaqin tajribalar - ekologik loyihalar - dala darslari va ekskursiyalar	- mas'uliyat, kuzatuvchanlik - ekologik madaniyat - mustaqil fikrlash va tahlil qilish

Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, fanlararo integratsiyalashgan loyihalar yaratish, natijalarni grafik va jadval shaklida tahlil qilish imkoniyatlari ham kengayadi (1-jadval). Bu esa biologiya o'qituvchisining zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyaga ega bo'lishiga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot davomida biologiya fanini o'qitishga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni chuqur o'rganildi va tadqiqot asosida ilmiy-amaliy natijalar aniqlandi. Amaliy mashg'ulotlar biologiya fani xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalar faoliyatiga bevosita ta'sir etib, nazariy bilimlarni real holatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, metodik, innovatsion, texnologik, tadqiqotchilik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Amaliy mashg'ulotlarni didaktik tamoyillar asosida rejalashtirish o'qituvchi tayyorlov jarayonining sifati va samaradorligini oshiradi, raqamli texnologiyalar va zamonaviy vositalardan foydalanish orqali tajribaviy mashg'ulotlar yanada interaktiv va o'zlashtirishga yo'naltirilgan tus oladi, faol ishtirok va muammo asosida tashkil etilgan topshiriqlar esa talabalar mustaqilligini, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Biologiya yo'nalishidagi ta'lim muassasalari, kafedralar va o'qituvchilar malakasini oshirish markazlari uchun quyidagi tavsiyalar amaliy ahamiyatga ega:

- amaliy mashg'ulotlarning o'quv rejasidagi ulushini oshirish, ularni faqat laboratoriya bilan cheklab qo'ymasdan, dala darslari, ekskursiyalar va virtual laboratoriyalar bilan boyitish;
- muammoli va loyiha asosidagi topshiriqlarni joriy etish orqali talabalarni faollashtirish, ularning tahliliy va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalarga asoslangan mashg'ulot modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, masalan, biologik jarayonlarning 3D modellashirilgan ko'rinishlari, mobil ilovalar va simulyatorlardan foydalanish;
- o'quv-metodik qo'llanmalar va video-darsliklar tayyorlash orqali mustaqil ishlashni qo'llab-quvvatlovchi resurs bazasini kuchaytirish;
- amaliy mashg'ulotlarda differensial va individual yondashuvlar asosida ishlash orqali talabalar bilim darajasiga moslashtirilgan ta'lim tashkil etish;
- biologiya o'qituvchilari uchun amaliy-metodik seminarlar tashkil etib, ularning yangi tajriba metodlari va texnologiyalardan foydalanish malakasini doimiy yangilab borish.

Mazkur tadqiqot doirasida aniqlangan natijalar va ochiq qolgan muammolardan kelib chiqib, istiqboldagi tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida raqamli biologik laboratoriyalarni loyihalash va ularning didaktik asoslarini ishlab chiqish, biologiyada STEAM yondashuvi asosida integratsiyalashgan amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish, biologiya o'qituvchilarining ekologik kompetensiyasini shakllantirishning amaliy asoslarini tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlar samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va testdan o'tkazish, shuningdek, hududiy va ekologik omillarni hisobga olgan amaliy mashg'ulotlar modellarini ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aybullayev, H. (2020). Pedagogik kompetentlik va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Turaqulov, B. (2019). Kasbiy kompetentlik: nazariy va amaliy jihatlar. Pedagogik izlanishlar jurnali, 4(2), 33-39.
3. Karimova, N. (2021). Biologiya ta'limida fanlararo yondashuv va kompetensiyaviy yondashuv. Ta'lim va innovatsiyalar, 5(1), 21-25.
4. Yo'ldoshev, A. (2020). Bo'lajak biologiya o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari. Ilmiy axborotlar, 6(3), 45-49.
5. Rasulova, M. (2022). Amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish. Oliy ta'lim muammolari, 2(1), 18-23.
6. Siddiqova, D. (2020). Metodik ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni. Ta'lim va amaliyot jurnali, 3(2), 26-30.
7. Qosimova, R. (2022). Biologiya ta'limida muammo asosida o'qitishning pedagogik imkoniyatlari. Pedagogik innovatsiyalar, 4(1), 15-19.
8. Xodjayev, I. (2023). Raqamli texnologiyalar yordamida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish tajribalari. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, 6(1), 40-45.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.